

Хужжат IDси (Didox.uz): 4c6e22a4685611f09006fa163ef6a82d
Хужжат IDси (Rouming.uz): 6881cfc8ff7e3825b8e02caa
электрон хужжат идентификатори



Shartnoma Шартнома №JDP4128-3076

Navoiy shahar
(шартнома тузиш жойи)

24.07.2025
(шартнома тузиш сана)
31.12.2025
(шартнома шу вақтгача амал қилади)

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" AJ(YO'L HUJJATLARINI RASMIYLASHTIRISH AGENTLIGI) (bundan buyun - "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor USMANOV TOHIRJON NEMATOVICH, bir tomondan, va "ZARAFSHON SHAHAR HOKIMLIGI" (bundan buyun - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor RAXMANOV NAZIRBEK ISRAILOVICH, ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraflar" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu shartnomaga biinoan, Mijoz tulaidi va qabul qiladi va Ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) etkazib beradi:

№	Maqsulot nomi (xizmatlar)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron miyaliy katalogi buyicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	Ulchov birligi	Miqdori	Narx	Etkazib bериш qiyamati	KKS		Etkazib berish bahosi KKS bilan
								stavka	summa	
1	Temir yo'l chiptasi	10108001001000003 - Iylovchilarni temir yul transportida tashish xizmatlari maqalliy iynalishlar buyicha		chel (passajir) 1.0 chelovek	40.00000	392 339.29	15 693 571.43	12 %	1 883 228.57	17 576 800.00
Jami							15 693 571.43		1 883 228.57	17 576 800.00

Shartnomaning umumiy miqdori Un etti million besh yuz etmish olti ming sakkiy yuz sum 00 tiiyin (summa suzlar bilan), (17 576 800.00)

- 1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachiga", halqaro va mamlakat ichi yo'nalishidagi poezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poezdida harakatlanish uchun naqdsiz hisob-kitob asosida yo'l hujjatlarini (chiptalarni) rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.
- 1.2. "Buyurtmachi" tuzilgan shartnoma asosida yo'l hujjatlarini sotib olish vaqtida amal qilgan narxlarda "Bajaruvchi" ga yo'l hujjatlari uchun 100% miqdorda oldindan to'lovni amalga oshiradi.
- 1.3. "Buyurtmachi" barcha turdagi yo'l hujjatlarini buyurtmanoma asosida sotib oladi.
- 1.4. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati, QQSni hisobga olganda _____ (_____) so'mni tashkil etadi,

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 2.1. "Buyurtmachi" ning buyurtmanomasiga ko'ra "Bajaruvchi" alohida yo'lovchilar guruhini (10 kishi va undan ortiq) tashishga yo'l hujjatlari rasmiylashtirishini amalga oshiradi, bunday buyurtmanomalar "Buyurtmachi" dan poezd jo'nab ketishidan kamida 20 kun oldin qabul qilinadi.
- 2.2. "Buyurtmachi", rahbar va bosh hisobchi tomonidan imzolangan va yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan buyurtmanomani taqdim etadi. Unda, yuridik shaxsning, ya'ni "Buyurtmachi" ning nomi, talab qilinayotgan joylar soni, jo'nab ketish sanasi, jo'nab ketish va yetib borish stansiyalari ko'rsatiladi. Buyurtmanomaga, jo'nab ketayotgan guruh a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami, tug'ilgan yillari ko'rsatilgan ro'yxatlar 2 nusxada ilova qilinishi kerak.
- 2.3. "Buyurtmachi" yo'lovchi poezdi jo'nab ketishidan 10 kun oldin, yo'l hujjatlarining to'liq qiymatini to'lagan holda buyurtma qilingan yo'l hujjatlarini sotib olishi shart. Yo'lovchi poezdi jo'nab ketgunga qadar yo'l hujjatlari belgilangan muddatda "Buyurtmachi" tomonidan sotib olinmagan taqdirda, buyurtmanoma bekor qilinadi va joylar sotuvga topshiriladi.
- 2.4. Temir yo'l hujjatlarini 10 tadan kam kishiga rasmiylashtirayotgan "Buyurtmachi", yo'l hujjatlarini shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatlarda xarid qiladi.
- 2.5. Foydalanilmagan yo'l hujjatlari "Buyurtmachi" tomonidan qaytarilgan taqdirda, qaytarish summasi, "Yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalarini" asosida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ma'muriyati orqali da'vo tartibida amalga oshiriladi.
- 2.6. "Buyurtmachi" tomonidan sotib olingan guruhli va guruhsiz yo'l hujjatlarini uchun to'lovlar, vokzallardagi chipta kassalari tomonidan qaytarilmaydi. Yo'l hujjatlarini sotib avtomatlashtirilgan tizimi orqali naqdsiz to'lov asosida rasmiylashtirilgan yo'l hujjatlarini bo'yicha to'lovlarning qaytarilishi, tashuvchi tomonidan e'tiroz tartibida, joylarni tizimga majburiy qaytarish sharti bilan qaytariladi.
- 2.7. Buyurtmada ko'rsatilgan yo'lovchi poezdida va vagonlarda joylar yetarli bo'lmagan taqdirda, "Buyurtmachi" roziligi bilan "Bajaruvchi" tomonidan boshqa yo'lovchi poezdida yoki boshqa toifadagi vagonda joy ajratilishi mumkin.

3. HISOB-KITOB TARTIBI

- 3.1. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi" ga, shartnoma qiymatidan tashqari 9 kishigacha (guruhsiz) va 10 kishi va undan ortiq (guruhli) yo'lovchilar uchun temir yo'l xizmatlari haqini, shu jumladan QQS ni hisobga olgan holda buyurtmanoma uchun belgilangan yig'imni buyurtmanomada ko'rsatilgan joy soniga asosan to'lab beradi.
- 3.2. "Buyurtmachi" ga yo'l hujjatlarini sotish "Bajaruvchi" ning kassalari orqali, "Buyurtmachi" da yo'l hujjatlarini olish uchun ishonchnoma, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ xisobxonaasining belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasi, buyurtmanoma va shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, guruh ro'yxati) mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.
- 3.3. Foydalanilmagan yo'l hujjatlarini "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalarini"ning 207, 213 bandlariga muvofiq qaytarilganda, "Buyurtmachi" dan, qaytarish muddatiga ko'ra ushlab qolinadigan summasi va qaytarish operatsiyalari uchun "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ rahbariyati tomonidan belgilangan yig'imlar summasi ushlab qolinadi. Chipta kassasiga topshirilgan foydalanilmagan temir yo'l da harakatlanish hujjatlarini (chiptalarni)

uchun pul mablag'larini qaytarish "O'ztemiryo'lyo'lovchi" Ajning 20210000003717281001 hisob raqamidan amalga oshiriladi. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" Ajning hisob raqamidagi ishlatilmagan pul mablag'larining qaytarilishi, ikkala tomon tarafidan o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini imzolagan holda "O'ztemiryo'lyo'lovchi" Aj 20210000603717281001 hisob raqamidan qaytariladi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

- 4.1. Amaldagi shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida, bajarilmaganligi yoki noto'g'ri bajarilganligi uchun moddiy javobgar bo'ladilar.
- 4.2. Agar shartnoma amal qilishi davrida tashuvchi (bajaruvchi) o'zgarsa, mazkur shartnoma asosidagi Bajaruvchi shartnoma shartlarini bajarish javobgarligidan qisman ozod etiladi.
- 4.3. Agar tashuvdagi muvaffaqiyatsizlik fors-major holatlarning natijasi bo'lsa, ushbu kelishuvda tomonlar majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- 4.4. Xizmat uchun to'lov shartlarini buzganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,5 % (foizi) miqdorida penya to'lashni talab qilishga haqli, ammo bu penya kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmastligi lozim.
- 4.5. "Buyurtmachi"ning tashabbusi bilan shartnoma bekor qilingan taqdirda, bajarilgan ish uchun to'lovni "Buyurtmachi" tomonidan "Bajaruvchi"ning amalda qilingan xarajatlari bo'yicha, shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.
- 4.6. "Bajaruvchi" temir yo'l hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javob beradi.
- 4.7. Yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan taqdim qilinayotgan buyurtmanoma ma'lumotlari, pasport ma'lumotlarining to'g'riligiga "Buyurtmachi" javob beradi.
- 4.8. "Buyurtmachi" tomonidan ko'rsatilgan sanaga halqaro va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poezdiga bo'sh joylar bo'lmagan shartda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ga mazkur shartnomaning shartlarini bajarishni rad etishga haqli.
- 4.9. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunga muvofiq qo'llaniladi.

5. FORS MAJOR

- 5.1. Tomonlarning nazoratidan tashqari hollarda, fors-major harakatlari natijasida, ya'ni toshqinlar, pandemiya (karantin), zilzilalar, ish tashlashlar, urush yoki boshqa holatlar natijasida shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 5.2. Agar bunday holatlardan biri to'g'ridan-to'g'ri shartnomada belgilangan muddatlarda majburiyatlarning bajarilmasligiga olib kelgan bo'lsa, unda ushbu shartlar tegishli holatlar davomiyligi davomiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
- 5.3. Agar ushbu holatlar 2 (ikki) kalendar oydan ko'proq davom etsa, unda Tomonlarning har biri ushbu shartnomani bajarish imkoniyati yo'qligi munosabati bilan uni bekor qilish tashabbusi bilan chiqishga haqli. Tomonlar shartnomani ko'rsatilgan asoslarga ko'ra bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Tomonlarning hech biri kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni qoplash huquqiga ega bo'lmaydi.
- 5.4. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Tomon zudlik bilan, lekin yengib bo'lmaz holatlar yuzaga kelganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay, boshqa Tomonni vakolatli organlar tomonidan berilgan asoslovchi hujjatlarni taqdim etgan holda yozma ravishda xabardor qilishi kerak.
- 5.5. Favqulodda-vaziyat holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida xabar bermaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik Tomonni yuqoridagi holatlardan birini majburiyatni bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida ko'rsatish huquqidan mahrum qiladi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

- 6.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari harakatlarga ta'sir qilish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita har qanday pul mablag'larini yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar yoki ushbu shaxslarning har qanday noqonuniy afzalliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun harakat qilmaydilar.
- 6.2. Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ushbu Shartnoma maqsadlarida qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik kabi harakatlarni amalga oshirmaydilar. Shuningdek, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvish) qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlar. Ushbu Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi.
- 6.3. Agar Tomon Shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalarini buzilgan yoki sodir bo'lgan deb gumbon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma xabarnomada Tomon Shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalarini buzilganligini yoki sodir bo'lishi mumkinligini ishonchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi shart. Yozma bildirishnoma yuborilgandan so'ng, tegishli Tomon boshqa Tomon tomonidan buzilish sodir bo'lmagan yoki ro'y bermasligi to'g'risida tasdiqlanmaguncha ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiqnoma yozma xabar olingan kundan boshlab o'n ish kuni ichida yuborilishi kerak.
- 6.4. Ushbu Shartnoma Tomonlar korruptsiyaning oldini olish bo'yicha tartib-qoidalar o'tkazilishini tan oladilar va ularga rioya etilishini nazorat qiladilar. Shu bilan birga, Tomonlar korruptsiya faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbiarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish uchun oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar, shuningdek, korruptsiyaning oldini olish uchun bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatadilar. Shu bilan birga, Tomonlar tomonlarni korruptsiya faoliyatga jalb qilish xavfining oldini olish maqsadida tekshirishlar o'tkazish tartib-qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.
- 6.5. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarish doirasida taqdim etilgan faktlar bo'yicha konfidensiallik tamoyillariga rioya qilgan holda tegishli jarayonning amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydi.
- Tomonlar Shartnomaning ushbu bo'limi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, umuman so'ragan Tomon uchun ham, so'rov yuborayotgan Tomonning qonunbuzarliklari fakti to'g'risida xabar bergan alohida xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar bo'lmastligini kafolatlaydi.
- 6.6. Xodimning uni rag'batlantirgan tomon foydasiga amalga oshirgan xatti-harakatlari quyidagicha tushuniladi:
 - boshqa kontragentlarga nisbatan asossiz ustunliklar berish;
 - har qanday kafolatlar berish;
 - amaldagi tartiblarni tezlashtrish;
 - xodim tomonidan o'z mehnat vazifalari doirasida amalga oshirilgan, biroq Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid keladigan boshqa harakatlar.
- 6.7. Agar Tomonlardan biri Shartnomaning ushbu bo'limida taqiqlangan harakatlardan voz kechish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzsa va/yoki boshqa Tomon ushbu Shartnomada ko'rsatilgan muddatda buzilish sodir bo'lmagan yoki ro'y bermasligi to'g'risida tasdiqnoma olmasa, boshqa Tomon shartnomani bekor qilishi mumkin. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Shartnomaning ushbu bo'limi qoidalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, tashabbusi bilan bekor qilingan Tomon, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

7.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuziladi va ikkala Tomon imzolagan bo'lsa qonuniy kuchga ega bo'ladi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bilan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, "Bajaruvchi" tomonidan ushbu shartnoma shartlarni buzilishi natijasida bir tomonlama amalga oshirilishi mumkin.

7.3. "Buyurtmachi" shartnomani muddatidan oldin bekor qilgan taqdirda, "Bajaruvchi"ga ushbu shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilingan ishning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmiga mos keladigan qiymati to'lanadi.

7.4. "Buyurtmachi" tomonidan ushbu shartnomaning 1.2., 3.1, 3.2., 3.3. va 3.4.-bandlarida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilmaganda "Bajaruvchi" 5 ish kuni muddatida "Buyurtmachi"ni bu haqida ogohlantirib shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

7.5. Shartnomani bekor qilingan sanasi deb, "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma bekor qilinganligi to'g'risida xabarnomani olgan sana hisoblanadi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH

8.1. Shartnomadan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha talabnoma yuborish tartibi tomonlar uchun majburiydir.

8.2. Talabnomalar tomonlarga elektron, kur'er yoki ro'yxatdan o'tgan pochta orqali Tomonlar joylashgan joyda qabul qilinganligi to'g'risida qayta xabarnoma yuborish yo'li bilan topshiriladi.

8.3. Talabnomani ko'rib chiqish muddati olingan kundan boshlab 15 (kun) kalendar kun hisoblanadi.

8.4. Tomonlarning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan yuzaga kelgan hal qilinmagan nizolar muzokara yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan hollarda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

8.5. Tomonlar zudlik bilan qoplanishi kerak bo'lgan barcha talablar to'g'risida darhol bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va har ikki tomonidan imzolangan bo'lsa, qonuniy kuchga ega va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.2. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismidir.

9.3. Tomonlardan birining yuridik manzili, rekvizitlari o'zgarganda tomonlar 3 (uch) kalendar kun ichida tegishli o'zgarishlar to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladilar.

9.4. Hujjatlarni taqdim etishda hujjatlarni qabul qilish vaqti quyidagicha belgilanadi:
- pochta tashkiloti tomonidan hujjatlarni yuborishda - qabul qilinganligi to'g'risida pochta xabarnomasiga muvofiq qabul qilingan sana;
- to'g'ridan-to'g'ri topshirilganda - vakolatli vakil hujjatlarni qabul qilib olgan sanaga.

9.5. Shartnoma ikki nusxada o'zbek tilida tuzilgan, har bir tomonda bittadan asl nusxada saqlanadi.

9.6. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilganidan tashqari barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

9.7. Hech bir tomon ushbu shartnomada ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma roziligisiz uchinchi tomonga o'tkazishga haqli emas.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

10.1. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuviga binoan amalga oshirilishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnomani tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi. Xizmatlar ko'rsatish qismida shartnoma g'aznachilikdan ro'yxatga olingan sanadan boshlab 24.07.2025yildan 31.12.2025yilgacha bo'lgan davrda, oxirgi sanani ham hisobga olgan holda amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashiga, buyurtmanoma berilgan, lekin ko'rsatilmagan xizmatlar mavjud bo'lganida, shartnomaning barcha shartlari bunday xizmatlar lozim tarzda ko'rsatilgunga qadar amal qiladi (uzaytiriladi).

11. Томонларни юридик манзиллари ва реkvizitlari

Ижрочи

Номи: "O' ZTEMIRYO' LYO' LOVCHI" AJ (00018-YO'L HUJJATLARINI RASMIYLASHTIRISH AGENTLIGI)

Манзил: 105010, Город Ташкент, город Ташкент, Туркистон, 7

Телефон:

Факс:

СТИР: 202472894

IFUT (OKED): 49100

X/P: 20210000003717281003

Банк: ТОШКЕНТ Ш., "ТИФ МИЛЛИЙ БАНКИ" АЖ БОШ ОФИСИ

МФО: 00450

Буюртмачи

Номи: "ZARAFSHON SHAHAR HOKIMLIGI"

Манзил: ЗАРАФШОН ШАХАР МАРВАРИД КУЧАСИ 1

Телефон: 90. 665-11-00

Факс:



СТИР: 200010211

IFUT (OKED): 84112

X/P: 100022860124087011503018003

Банк: ТОШКЕНТ Ш., МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ТОШКЕНТ ШАХАР ХИСОБ-КИТОБ КАССА МАРКАЗИ

МФО: 00014





NAVOIY VILOYATI ZARAFSHON SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 10-iyul

121-5-78-F/25

Zarafshon shahar hokimligi

Mablag' ajratish to'g'risida


O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi, Budget kodeksining 73-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-apreldagi 239-son farmoyishi, Navoiy viloyati hokimligining 2025-yil 7-iyuldagi 08-08/649-son xati hamda shahar hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L. Tursunovaning bildirgisiga asosan:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi (N. Xolov) shahar mahalliy budjetining zaxira mablag'lari hisobidan shahar hokimligiga "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlarni Toshkent viloyatida tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish bo'yicha seminarda ishtirok etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlar uchun 22 376 800 (yigirma ikki million uch yuz yetmish olti ming sakkiz yuz) so'm mablag' ajratsin.

2. Shahar g'aznachilik bo'linmasi rahbari (M. Jo'lanov), shahar hokimligi bosh hisobchisi (Q. Xidirov) ajratilgan mablag'dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlasin.

3. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A. Shoxmirzayev zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi



N.Rahmanov